

## FAYZLI OQSHOMLAR SURURI

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasidagi dasturlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash, aholi, xususan, yoshlar o'rtasida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, targ'ibot-tushuntirish ishlari samaradorligini yanada oshirish, aholining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, milliy hunarmandchilik an'analarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilishni rag'batlantirish, ular o'rtasida faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 31 yilligining munosib kutib olish maqsadida Toshloq tumanidagi mahallalarida ko'ngilochar "Mustaqillik oqshomlari" madaniy-ma'rifiy tadbirlari tashkil etilmoqda.

"Tog'liq" MFYda "Mustaqillik oqshomlari" shiori ostida aholining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, qalbleridagi shukronalik hissini kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan shodiyonada tuman madaniyat bo'limi xonandalari kechaga yanada fayz va surur bag'ishlab, dilrabo qo'shiqlaru, jozibali raqslar ijro etdilar.

Tadbir doirasida sport musobaqalari ham o'tkazilib, stol tennis, shaxmat-shashka bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. G'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar esdalik sovg'alari hamda faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar. Tadbirda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish maqsadida harbiylarning musiqiy ko'rgazmali chiqishlari hamda konsert dasturi o'tkazildi.  
2022-08-23 09:27:23